**O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

# AXROROV IVADULLA ZIYATOVICH

# ABDULQOHIR JURJONIY "MIAT OMIL"ASARINING QUR'ONI KARIM MA'NOLARI TARJIMASINI IZOHLASHDAGI O'RNI

**24.00.04 – Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunosligi**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on philological studies sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**AXROROV IVADULLA ZIYATOVICH**

**ABDULQOHIR JURJONIY "MIAT OMIL" ASARINING QUR'ONI
KARIM MA'NOLARI TARJIMASINI IZOHLASHDAGI O'RNI**

**24.00.04 – Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunosligi**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fil1532 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iiauz.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Islamov Zahid Maxmudovich**<br>filologiya fanlari doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Muhamedov Ne'matullo Asatullayevich**<br>tarix fanlari doktori, professor |
| | **Hasanova Shafoat Saidbekovna**<br>filologiya fanlari doktori, professor v.b. |
| **Yetakchi tashkilot:** | **O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil ___ dekabr soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 2440056; faks: (99871) 2440065; e-mail: info@iiau.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (167-raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A. Qodiriy ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 2440091.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil ___ noyabrda tarqatildi.
(2024-yil 06-noyabrdagi 03-raqamli reestr bayonnomasi.)

**D.R. Maxsudov**
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

**S.A. Rustamiy**
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

**M.F. Alimova**
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari nomzodi, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida sivilizatsiyalararo to'qnashuvlarning tobora avj olishi konfessiyalar, millatlar va madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yish, ziddiyatli masalalarga ilmiy yondashishni talab qilmoqda. Qur'on ma'nolarini to'g'ri tushunish zarurati lingvistik chegaralardan chiqib, global ahamiyat kasb etib ulgurgan. Hozirgi davrda turli adashgan diniy oqim va firqalarning Qur'on hukmlarini xato tushunishlari, noto'g'ri talqin qilishlari bu borada chuqur bilimga ega bo'lmagan jamiyatlarning tanazzuliga sabab bo'lmoqda. "Shu nuqtai nazardan, buyuk ajdodlarimiz bo'lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butunjahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir. Bu masala yoshlarda ilm-fanga va ta'lim olishga intilish tuyg'usini kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatlari va madaniyatini to'g'ri anglash hamda qabul qilish, dunyoning barcha xalqlariga Islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini etkazish uchun muhimdir"[1].

Dunyoda islom dinining mohiyati, uning yozma manbalari mazmun-ma'nolarini ochishga qaratilgan soha va bilim yo'nalishlaridan Qur'oni karim ma'nolarini izohlashda arab tili grammatikasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu o'rinda sarf (الصرف – morfologiya), nahv (النحو – sintaksis), kalom (gap tuzilishi), kalima (so'z yasalishi), harf (ko'makchi), e'rob va omillar (boshqaruvchi so'zlar) masalalari batafsil yoritilgan Imom Sibavayhning "Kitāb" (الكتاب) Mahmud Zamaxshariyning "Mufassal" (المفصل), Ibn Hojibning "Kāfiya" (الكافية), Abdurahmon Jomiyning "al-Favāid az-ziyāiya"(الفوائد الضيائية), Ibn Molikning "al-Alfiya" (الألفية), Ibn Hishomning "Qavāid al-e'rāb" (قواعد الاعراب), Ayman Abdulg'aniyning "an-Nahv al-kāfiy" (النحو الكافي), Abbos Hasanning "an-Nahv al-vāfiy" (النحو الوافي) singari arab tili grammatikasiga oid asosiy manbalarga murojaat qilish zarurati ortmoqda. Jumladan, butun musulmon olami diniy ta'lim muassasalarida darslik sifatida o'qitilgan grammatik qoidalarning ma'noga ta'sir qiluvchi 100 ta omil ko'rinishida shakllantirgan Abdulqohir Jurjoniyning "Miat omil" (مئة عامل) asarini tadqiq qilish mazkur yo'nalishdagi izlanishlarni olib borishda muhim bo'lib, fundamental yondashuvni ta'minlaydi.

Yangi O'zbekistonda qomusiy olimlar ilmiy merosini o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Hozirgi kunda o'n ikki olim tomonidan Qur'on ma'nolari tarjimasi va tafsirlari hamda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sharq allomalarining bebaho ilmiy merosi butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi. Ayniqsa, Qur'oni karimni o'qish va uni to'g'ri tushunishga yordam beruvchi kitoblar, qo'llanmalar va shu mavzudagi ilmlarga bo'lgan ehtiyoj barcha davrlarda bo'lganidek yuqoriligicha qolmoqda. Qur'on nozil bo'lgandan so'ng arab tili grammatikasi tarkibida sarf (morfologiya)*,* nahv (sintaksis) va balog'at

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи. – URL: https://president.uz/uz/lists/view/34

ilmlari yuzaga keldi. Abdulqohir Jurjoniyning ilmiy izlanishlari, ayniqsa, "Miat omil" asarining bu borada alohida o'rni bor. Alloma nahv va balog'at ilmlari borasida samarali mehnat qilgan. Qur'onning ayrim oyatlarini filologik nuqtai nazardan sharhlashga ham erishgan"[2]. "Miat omil" asarida arab tili grammatikasidagi ma'noga ta'sir qiluvchi 100 ta grammatik omil tanlab olinib, ularning grammatik vazifalari batafsil yoritilgan. Shu nuqtai nazardan, Qur'on ma'nolarini tarjima qilish va uni to'g'ri anglashda asarning o'rganilishi muhim sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-son Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2995-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 466-son Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'rta asrlarda arab-musulmon madaniyati tarkibida til xususiyatlarini o'rganishga doir dastlabki qarashlar Abu Ubayda, Johiz, Ibn Mu'tazz, Farobiy, Qudama ibn Ja'far, Ibn Vahb, Rummaniy, Askariy, Qayravoniy, Abdulqohir Jurjoniy, Xaffajiy, Mahmud Zamaxshariy, Faxriddin Roziy, Yusuf Sakkokiy, Jaloliddin Qazviniy, Sa'duddin Taftazoniy kabi olimlarning adab ilmi, nasriy va nazmiy nutqqa oid asarlarida bayon qilingan[3].

---

[2] Mullasodiqova N., Bobojonov H. Nahvda yuzta omil. – T: Toshkent islom universiteti, 2014. – B. 8.

[3] أبو عبيدة معمر بن المثنى البصري. مجاز القرآن \ بتحقيق محمد فؤاد سركين. – القاهرة: مكتبة الخانجي. الجزء الأول – ص. 414؛ الجزء الثاني – ص.452؛ أبو عثمان عمرو بن بحر الجاحز. كتاب البيان والتبيين. – مكتبة النور، 2006. – ص. 444؛ أبو العباس عبد الله بن المعتز. كتاب البديع \ شرحه وحققه عرفان مطرجي. مؤسسة الكتب الثقافية، 2012. – ص. 110؛ أبو النصر محمد بن الفارابي. كتاب في المنطق. الخطابة \ تحقيق وتأليف د. محمد سليم سالم. – القاهرة : مطبعة دار الكتب، 1976. – ص. 64؛ قدامة بن جعفر. نقد الشعر. – قسطنطينية: مطبعة الجوائب، 1302. – ص. 93؛ إسحاق بن إبراهيم سليمان بن وهب. البرهان في وجوه البيان. – القاهرة: مكتبة الشباب. – ص. 419؛ أبو الحسن علي بن عيسى بن عبد الله الرماني. النكت في إعجاز القرآن. – القاهرة : دار المعارف، 1976. – ص. 73-113؛ حسن بن عبد الله عسكري. كتاب الصناعتين. – القاهرة: إحياء الكتب العربية. الطبعة الأولى. 1952؛ أبو علي الحسن بن رشيق القيرواني. العمدة في صناعة الشعر ونقده وعيوبه. – القاهرة: المكتبة الخانجي، 2000 –ص.1509؛ أبو بكر عبد القاهر بن عبد الرحمن بن محمد الجرجاني. دلائل الإعجاز في المعاني – القاهرة: المكتبة التوفيقية – ص. 365؛ أبو محمد عبد الله بن محمد بن سعيد بن سنان الحفجي. أسرار البلاغة – جدة: دار المدني. – ص. 548؛ كتاب سر الفصاحة– لبنان: دار الكتب العلمية، 1982. – ص. 315؛ فخر الدين أبو عبد الله محمد بن عمر الرازي. نهاية الإيجاز في دراية الإعجاز \ حققه د. نصر الله حاجي مفتي أوغلي. – بيروت :دار صادر، 2004. – ص. 282؛ سراج الدين أبو يعقوب يوسف بن أبي بكر بن محمد بن علي السكاكي. مفتاح العلوم \حققه نعيم زرزور – بيروت: دار الكتب العلمية، 1987. – ص. 621؛ محمد بن عبد الرحمن بن عمر أبو المعالي جلال الدين القزويني، أبو عبد الله زكريا بن محمد بن محمود القزويني. الإيضاح في علوم البلاغة المعاني والبيان والبديع. – لبنان: دار الكتب العلمية، 2003. – ص. 415؛ أبو سعيد مسعود بن عمر بن محمد بن أبي بكر بن محمد بن الغازية التفتازانية السمرقندي. المطول. شرح تلخيص مفتاح العلوم. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1971. – ص.856.

G‘arb davlatlarida o‘rta asrlar arab tili va grammatikasiga oid masalalar K. Brokelman, A. Sochin, E. Tomas, U. Rayt, U. Robertson Smit va M. Dj. de Godj[4] kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Rossiyada A.Dog‘istoniy, O.I.Redkin, O.A.Bernikova[5] kabi tadqiqotchilar tomonidan mavzuga doir izlanishlar amalga oshirilgan.

O‘zbekistonda ilk bor Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi va tafsiri borasida Shayx Alouddin Mansur, Shayx Muhammadjon mullo Rustam o‘g‘li (Mavlaviy hoji Hindistoniy), Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Abdulaziz Mansur, Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy, Azizxo‘ja Inoyatov va G‘ani Zikrillaevlar salmoqli ishlarni amalga oshirganlar[6]. Shuningdek, N. Ibrohimov, Z. Islomov, E. Talabov, S. Rustamiy, B. Ibragimov, M. Nosirova, B. Hasan, A. Abdujabborov, A. Kazakbaev, A. Akmalxonov arab tili grammatikasi, arab adabiyoti tarixi va uning til xususiyatlari, tilshunoslikka oid o‘rta asrlar lingvistik nazariyalari, adab ilmi nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib bordilar[7]. N. Mullasodiqova hamda H. Bobojonovlar tomonidan Abdulqohir Jurjoniyning “al-Avomil al-mia fi an-nahv” asarining balog‘at ilmidagi o‘rni o‘rganilgan[8].

Biroq Qur’oni karim ma’nolari tarjimasini izohlashda “Miat omil” asarining xususiyatlari yaxlit holda tadqiq etilmagan. Mazkur ilmiy muammo o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi**. Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunosligi” mavzusi doirasida bajarilgan.

---

[4] Carl Brockelmann, Albert Socin. A. Socin's arabische Grammatik: Paradigmen, Literatur, Übungsstücke und Glossar. – German: Copyright-region-US. Harvard University, 1904. – P. 374; Erpenius Thomas. Grammatica Arabica. Topics-bub_upload-Publisher-Lugdunum Batavorum-Collection europeanlibraries Book from the collections of Bavarian State Library Language. – Bavaria,1748. – P.846; Wright William, William Robertson Smith, M. J. de Goeje. A Grammar of the Arabic Language. V1 and V2. Attribution-Noncommercial-No Derivative Works 3.0. – Cambridge: Cambridge University Press, 1896.

[5] عبدالقاهر ابن عبد الرحمان ابن محمد الجرجاني. العوامل المئة. بيروت: دار المنهاج - 1430 ه.2009 م. عني به انور بن ابي بكر الداغستاني
Редькин О.И., Берникова. Грамматика арабского языка. (на примерах из Корана).- Санкт-Петербург, 2015.

[6] Шайх Алоуддин Мансур. Қуръони Азим мухтасар тафсири. – T: Sharq, 2019. – 604 б.; Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. – Т: Шарқ, 2008. 1-жуз. – 663 б.; 2-жуз. –638 б.; 3-жуз. – 669 б.; 4-жуз. – 638 б.; 5-жуз. – 670 б.; 6-жуз. – 639 б.; Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – T: Sano-standart, 2021. – 604 б.; Иноятов А., Зикруллаев Ғ. Қуръони карим оятлари мазмун-маъносининг ўзбекча изоҳли таржимаси. – T: Hilol-Nashr, 2022. – 604 б.; Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий. Қуръони карим маъноларининг ўзбекча таржимаси ва тафсири. – Т: Шарқ, 2019. 1-жуз. – 736 б.; 2-жуз. – 736 б.; 3-жуз. – 719 б.; 4-жуз. – 752 б.; 5-жуз. – 752 б.; 6-жуз. – 752 б.; Шайх Муҳаммаджон мулло Рустам ўғли. Баён ул-фурқон фи таржимат ул-Қуръон. – Т: Мовароуннахр, 2006. – 980 б.

[7] Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Т: Ғафур Ғулом, 2004. – 648 б.; Исломов З. Маҳмуд Замахшарийнинг “Муқаддамату-л-адаб” асарининг қўлёзма манбалари ва арабча-туркий феъллар сўзлигининг йиғма илмий-танқидий матни. Филол.фан.докт..... дисс.,ЎзР ФА Қўлёзмалар институти, 1999.; Талабов Э. Араб шеъриятида аруз тизими. Филол.фан.докт..... дисс. автореф. – Т: 2004.; Рустамий С. Балоғат илмида лингвистик назариялар ва тил ҳодисаларининг ёритилиши. Филол.фан.докт..... дисс. автореф.– Т: Navro’z, 2017. 172 б.; Ибрагимов Б. Араб тили дарслиги. – Т: Тошкент ислом университети, 2008. Носирова М. Маҳмуд Замахшарийнинг “Ал-Унмузаж фи-н-нахв” рисоласи. Монография. – Т: ТДШИ нашриёти, 2005. . – 75 б.; Ҳасан Б. Қуръон-и карим сўзларининг арабча-ўзбекча кўрсаткичли луғати. – Т: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – 518 б.; Абдужабборов А. Араб тили. – Т: 2007. – 307 б. Казакбаев А. Муҳаммад ал-Муъиззий.”Тасриф ал-афъал” асарининг сарф илми ривожидаги ўрни. Филол.фан.докт..... дисс. автореф. – Т: 2023. – 49 б.; Акмалхонов А. Саккокийнинг “Мифтаҳу-л-улум” асарида наҳв ва сарф масалалари. Филол.фан.докт..... диссертatsiя. – Т: 2020.- 152 б.

[8] Mullasodiqova N., Bobojonov H. Nahvda yuzta omil. – T: Toshkent islom universiteti, 2014. – 116 b.

**Tadqiqotning maqsadi** Abdulqohir Jurjoniy "Miat omil" asarining Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini izohlashdagi oʻrnini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

arab tili grammatikasiga oid asarlar va ularning qur'onshunoslik rivojidagi oʻrnini aniqlash;

arab tilida omil kategoriyasi va uning grammatik-sintaktik vazifalarini yoritish;

Qur'on oyatlarida grammatik tahlilni ochib berish;

Abdulqohir Jurjoniyning arab tilshunosligi rivojiga qoʻshgan hissasini koʻrsatish;

"Miat omil" asarining qoʻlyozma manbalarini tavsiflash va tahlil qilish;

asar tarkibiy tuzilishining oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash;

asarda Qur'ondagi fe'l va ismga ta'sir qiluvchi omillarni bayon qilish;

Jurjoniy tasnifidagi fe'liy omil turlarini qiyosiy yoritish;

"Miat omil" asarida qiyosiy va ma'naviy omillar semantikasini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini izohlashga oid grammatik omillar.

**Tadqiqotning predmeti**ni Abdulqohir Jurjoniyning "Miat omil" asaridagi Qur'on ma'nolari tarjimasi va ularni izohlashga oid grammatik omillar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda ilmiy tavsiflash, analiz va sintez, semantik, qiyosiy-tipologik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

"Miat omil" asarida fe'l soʻz turkumiga oid grammatik omillar morfologik va sintaktik xususiyatlariga koʻra: الْأَفْعَالُ النَّاقِصَةُ (yordamchi), أَفْعَالُ الْمُقَارَبَةِ (yaqinlik), أَفْعَالُ الْمَدْح وَالذَّمِّ (maqtash va yomonlash) hamda أَفْعَالُ الشَّكِّ وَالْيَقِينِ (shubha va ishonch)ni ifodalovchi fe'l turlariga boʻlib izohlangani natijasida ularning grammatik vazifalarini tushunish va qamrab olish soddalashgani aniqlangan;

"Miat omil" asarida "Moida" surasi 6-oyati: "qoʻllaringizni tirsaklarigacha, oyoqlaringizni toʻpiqlarigacha (yuving)" jumlasidagi إِلَى "-gacha" koʻmakchisi arab tilidagi مَعَ "bilan" ma'nosini va boshqa 18 ta oyatdagi koʻmakchilarning turli ma'nolarni ifodalaganini isbotlab berilishi natijasida manbaning aqidaviy va fiqhiy oyatlarni tushunish borasidagi ixtiloflarning oldini olish imkoniyati oshgani dalillangan;

"Miat omil" asarida asl ma'noga ta'sir oʻtkazmasdan jumlada qoʻshimcha boʻlib keladigan كَ (kaf) koʻmakchisiga "Shoʻro" surasidagi لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ (Uning mislidek biror narsa yoʻq) oyatini misol qilish bilan muallif ahli sunnaning mutashobih (bir-biriga zid boʻlgan bir necha ma'nolarga dalolat qiladigan) oyatlar borasidagi e'tiqodini grammatik jihatdan qoʻllab-quvvatlagani isbotlangan;

Asarda egani bosh kelishikda, kesimni tushum kelishigida boʻlishini talab qiladigan كَانَ yordamchi fe'liga misol qilingan "Niso" surasidagi وَكَانَ اللّٰهُ عَلِيمًا حَكِيمًا (Alloh bilim va hikmat sohibidir) oyatida Alloh taoloning ilm va qudrat singari zotiy sifatlarini inkor qiluvchi moʻtazilalarga raddiya borligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Abdulqohir Jurjoniy ilmiy merosini chuqur oʻrganish orqali uning arab tilshunosligi taraqqiyotiga qoʻshgan katta hissasi, arab tili grammatikasidagi omillarga oid qoidalarning yoritilish tamoyillari hamda oʻziga xos jihatlari ilmiy dalillar orqali asoslangan;

arab tilshunosligiga oid grammatik terminlarni oʻzbek tiliga oʻgirish mahorati tarjima adekvatligi kafolati ekanini isbotlash maqsadida Abdulqohir Jurjoniyning "Miat omil" asari tadqiqotchi tomonidan tarjima qilingan va ochib berilgan;

"Miat omil" asarida arab tilidagi grammatik omillarning turli ma'nolarda kelishi Qur'oni karim oyatlari va boshqa misollar yordamida yoritilgan;

arab tilshunosligida fundamental manbalardan boʻlgan Abdulqohir Jurjoniyning "Miat omil" asarida Qur'oni karimdagi jami 14 ta: البقرة Baqara, الحج Haj, الأحقاف Ahqof, النّساء Niso, المائدة Moida, طه Toha, الشّورى Shuro, الكهف Kahf, الفتح Fath الأنبياء Anbiyo, فصّلت Fussilat, الصّافّات Soffat, ص Sod, الأعراف A'rof, suralarining 19 ta oyatida omillarning turli ma'nolarda qoʻllangani aniqlangan;

omillarning ilmiy talqinlari, shuningdek, fonetika, semantikaga oid nazariy masalalar klassik davr tilshunoslari qarashlari asosida yoritib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi "Manbalar xazinasi"dagi qoʻlyozmalar fondida 237/VI, 107/XI, 54/V, 180/IV, 54/VI, 33/V, 220/VII, 124/VI, 40/IV, 34/III, 54/V, 247/IV, 157/III, 176/IV, 391/VII, 394/IV, 395/V-inventar raqamli va Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida 4850, 8820, 12310, 12455, 12018, 10895-inventar raqami ostida saqlanayotgan Abdulqohir Jurjoniy "Miat omil" asarining qoʻlyozmalari hamda 1847-yilda bosilgan toshbosma nusxasidan foydalanilgani, shuningdek, xorij va respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalar, ilmiy-nazariy konferensiyalarda oʻqilgan ma'ruzalar, nashr etilgan tezis va monografiyalar, tadqiqot obyekti va predmetiga tizimli ilmiy yondashuv va istifoda etilgan metodologiyaning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, dalil, tahlil va xulosalarning dastlabki va ishonchli manbalarga tayangani, nazariy qarash, yechim va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning tegishli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati**. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asarda bayon qilingan ilmiy-nazariy qarashlar Qur'oni karim lugʻatiga asoslangan arab tilidagi grammatik omillarga oid darslik, lingvistik masalalarga bagʻishlangan istiqboldagi ilmiy tadqiqotlarga manba boʻlib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularni Oʻzbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy va oʻrta maxsus diniy ta'lim muassasalari, "Filologiya va tillarni oʻqitish (arab tili)" ta'lim yoʻnalishi, "Lingvistika (arab tili)" mutaxassisliklarida maxsus kurs sifatida oʻqitilishi va manbashunoslik boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Abdulqohir Jurjoniy "Miat omil" asarining Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini izohlashdagi oʻrni boʻyicha olib

borilgan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan taklif va ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida:

"Miat omil" asarida ma'no anglatmaydigan كَ (kaf) ko'makchisining misoli bo'lib kelgan Sho'ro surasidagi لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ (Uning mislidek biror narsa yo'q) oyatida Yaratuvchini yaralmishlarga o'xshatish e'tiqodida bo'lgan mushabbihalarga, shuningdek, Allohga nisbatan "shay" so'zini ishlatish joiz emas deb e'tiqod qiladigan jahmiyalar (adashgan firqalardan biri)ga ham raddiya borligi isbotlangani haqidagi ilmiy xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazida diniy ta'lim muassasasi o'qituvchilari hamda imom-xatiblar uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida "Moturidiy ta'limoti asoslari", "Aqidaparast oqimlarga ilmiy raddiya berish asoslari: xalqaro tajriba" va "Hadislardan hukm olish asoslari" kabi fanlardan o'quv rejalarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2024-yil 4-apreldagi 02-02//1059-son ma'lumotnomasi). Natijada diniy ta'lim o'qituvchilari va soha xodimlarining adashgan firqalarga nisbatan Qur'on oyatlari yordamida raddiyalar berish to'g'risidagi bilimlari oshishiga xizmat qilgan;

Jurjoniy asarda egani bosh kelishikda, kesimni tushum kelishigida bo'lishini talab qiladigan كَانَ yordamchi fe'lining misolida foydalangan Niso surasidagi وَكَانَ اللهُ عَلِيمًا حَكِيمًا (Alloh bilim va hikmat sohibidir) oyatida Alloh taoloning sifatlarini inkor qiluvchi mo'tazilalarga raddiya borligi asoslanganiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston musulmonlari idorasi diniy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan Aburahmon Jomiyning "Sharhi Mullo", Abduqodir Abdurahimning "E'tiqod durdonalari", Abul Barakot Nasafiyning "Tafsir an-Nasafiy" kabi adabiyotlarning mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston musulmonlari idorasining 2024-yil 1-martdagi 05-03/557-son ma'lumotnomasi). Natijada oyatlarning mazmunan qamrovini o'rganish va ularni tushunishda shakllangan ma'lum tartib-qoidalar, mezonlar asosida raddiyalar haqidagi ma'lumotlar soha vakillariga yetib borishiga xizmat qilgan;

"Miat omil" asarida Moida surasi 6-oyati: فَاغْسِلُوا وُجُوهَكُمْ وَأَيْدِيَكُمْ إِلَى الْمَرَافِقِ وَامْسَحُوا بِرُءُوسِكُمْ وَأَرْجُلَكُمْ إِلَى الْكَعْبَيْنِ (qo'llaringizni tirsaklarigacha, oyoqlaringizni to'piqlarigacha (yuving)) jumlasidagi إِلَى "gacha" ko'makchisi arab tilidagi مَعَ "bilan" ma'nosini va boshqa 18 ta oyatdagi ko'makchilarning turli ma'nolarini ifodalagani isbotlab berishi natijasida manbaning Qur'on oyatlarini tushunish borasidagi ixtiloflarning oldini olish imkoniyati oshgani dalillanganiga oid ilmiy xulosalardan va "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha tadbirlar to'g'risida" PQ-5186-son qaroriga 1-ilova "Jahon ilm-fani taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan ajdodlar ilmiy merosini tadqiq qilish hamda yangi yuksalish davridagi yutuqlarni targ'ib qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning II yo'nalishiga oid "Ma'naviy-marifiy targ'ibot tadbirlari" 18-bandi "Ajdodlar merosi – ibrat va tarbiya manbai" mavzusida amalga oshirilgan targ'ibot ishlarida hamda ziyorat turizmining ilmiy asoslari bo'yicha yetarli nazariy bilim va ko'nikmalarga ega gid-tarjimonlar hamda soha

xodimlari uchun tashkil etilgan darslar va o‘quv kurslari mazmunan boyitilishiga erishilgan hamda ilmiy ishning nazariy xulosalaridan ilmiy takliflar sifatida foydalanilgan (O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining 2024-yil 29-martdagi 06-07/52-son ma’lumotnomasi). Natijada gid-tarjimonlar hamda soha xodimlari uchun tashkil etilgan darslar va o‘quv kurslari mazmunan boyitilishiga erishilgan;

“Miat omil” o‘z davriga qadar yozilgan asarlardan farqli ravishda grammatik omillarni 13 turga tasniflab, ularni shartli ravishda so‘z bilan ifodalanadigan lafziy va mantiqan tushunib olinadigan ma’naviy omillar sifatida tartiblagani natijasida manbaning keyingi davr arab tili grammatikasiga oid adabiyotlarga uslubiy asos bo‘lib xizmat qilgani aniqlanganiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi qoshidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Buyuk yurt allomalari” ko‘rsatuvi tizimli ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi qoshidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2024-yil 3-martdagi 02-31-323-son ma’lumotnomasi). Natijada yangi dalil, fikr-mulohaza va nazariy xulosalar teleko‘rsatuvning sifati ortishiga, tomoshabinlarning ajdodlar merosi, jumladan, “Miat omil” asari mazmuniga qiziqishi kuchayishiga, arab grammatikasining o‘ziga xosliklari bilan tanishishlariga hamda Qur’on ma’nolari tarjimasidagi nozik mazmun-mohiyatlarini chuqurroq idrok etishlariga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan**.**

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi**. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan hamda muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi hamda maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va usullari aniqlangan, ilmiy yangiligi ma’lum qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, amalda joriy qilinishi va natijalari, aprobatsiyasi, e’lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Arab tili grammatikasining Qur’on ilmlarini o‘rganishdagi ahamiyati”** deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi fasli *“Arab tili grammatikasiga oid asarlar va ularning qur’onshunoslik rivojidagi*

*o'rni"* deb ataladi. O'zbekiston musulmonlari idorasi tizimidagi oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida diniy ta'lim yo'nalishi bevosita Qur'on va hadisga asoslangani bois arab tili klassik usulda o'rgatiladi. Bu tilni o'zlashtirishda asosan sarf (morfologiya), lug'at (leksikologiya) va nahv (sintaksis) kabi ilmlar Qur'on ma'nolarini to'g'ri anglashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Arab tili grammatikasiga oid dastlabki asarlar VII asrda yozilgan. Bu til grammatikasining tuzilishiga Qur'on asos qilib olingan. Keyingi davr ulamolari Abul Asvad Dualiy (VII asr) tomonidan tuzilgan grammatikaga oid asarlar bitishgan. Jumladan, Xalil ibn Ahmadning "al-Aruz" va "Kitāb ash-shavāhid", Imom Sibavayhning "al-Kitāb" (VIII asr), Abdulqohir Jurjoniyning "Miat omil" (XI asr), Ibn Hojibning "Kāfiya", Mahmud Zamaxshariyning "Mufassal" va "Unmuzaj" asarlari (XII asr), Abdurahmon Jomiyning "al-Favāid az-ziyāiyya" (XV asr) kabi asarlari qur'onshunoslik rivojida asos hisoblanadi.

Ibn Hojib (1174 –1248) nomi bilan mashhur bo'lgan Jamoliddin Abu Amr Usmon ibn Umar ibn Abu Bakr Kurdiyning "Kāfiya" kitobi qur'onshunoslik rivojida muhim manbalardan biri sanalanadi. Doktor Toriq ibn Najm bu kitobga arab tilida yozilgan sharhlarning o'zi 142 taga etganini qayd etgan[9]. Mazkur asar fors va turkiy tillarda ham sharhlangan. 1492-yili Abdurahmon Jomiy unga "al-Favāid az-ziyoiyya" nomli sharh bitgan. Bu asar "Sharhi Mullo" nomi bilan shuhrat qozongan. Unga yigirmadan ortiq hoshiyalar yozilgan[10]. Mazkur sharh Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida so'nggi vaqtlargacha madrasa va oliygohlarda arab tilidan qo'llanma bo'lib keldi[11]. "Kāfiya" asarini tushunish uchun mantiq ilmidan ham xabardor bo'lish talab etiladi. Hozirgi kunda Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Imom Termiziy nomidagi islom instituti, Buxorodagi Mir Arab oliy madrasasi va Samarqanddagi Hadis ilmi maktabida Jomiyning "al-Favāid az-ziyāiyya" asari arab tilidan asosiy qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda.

Qur'onshunoslik taraqqiyotiga hissa qo'shib kelayotgan manbalardan yana biri Ibn Molikning "Alfiya" asari sanaladi. U XIII asrga mansub bo'lib, ming baytdan iborat, nazmiy usulda yozilgan. Muallifning to'liq ismi Abu Abdulloh Jamoliddin Muhammad ibn Molik (1203 – 1273)dir. "Alfiya"ga misrlik olim Bahouddin ibn Aqiyl Hoshimiy (1298 – 1367) sharh yozgan. Kitob oxirida kelgan baytdagi "xulosa" so'zidan olinib, "Xulāsa" deb nomlangan bo'lsa-da "Alfiya" nomi bilan mashhur bo'lgan. "Alfiya" atamasi kitob avvalida kelgan baytdan olingan. Mazkur asar uchun ko'plab sharh va grammatik tahlillar bitilgan. Hozirgi kunda Qohiradagi "Al-Azhar", Madinadagi Madina islom universiteti va boshqa arab mamlakatlaridagi nufuzli oliygohlarda "Alfiya" asari darslik sifatida o'qitib kelinadi.

Qur'onshunoslik sohasi takomilida muhim o'rin tutgan grammatik asarlar qatorida Mahmud Zamaxshariy (1075–1144)ning "Mufassal" nomli kitobi ham muhim o'rin tutadi. U arab tili nahv va sarfini o'rganishda yirik qo'llanma sifatida

---

[9] https://ia802209.us.archive.org/35/items/konsetkkonsetk/konsetk.pdf
[10] Qarang: www.arabic.uz.
[11] Qarang: https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/fors-tojik-sheriyati/abdurahmon-jomiy/(murojaat sanasi: 30.07.2023).

azaldan musulmon olamida shuhrat topgan. Asar oʻz davridayoq arablar orasida katta eʻtibor qozongan va arab tilini oʻrganishda asosiy qoʻllanmalardan biri sifatida keng tarqalgan. "Mufassal"ning ixchamlashtirilib, muxtasar holga keltirilgan nusxasi "Unmuzaj" (Namuna) deb ataladi.

Xulosa qilib aytganda, nahv olimlari oʻz asarlari bilan qurʼonshunoslik rivojiga salmoqli hissa qoʻshganlar.

*"Arab tilida omil kategoriyasi va uning grammatik-sintaktik vazifalari"* deb nomlangan ikkinchi faslda Qurʼon arab tilida bayon qilingani, undagi oyatlarning tuzilishi olimlar tomonidan diqqat bilan oʻrganilgani va shu asosda qoidalar ishlab chiqilgani yoritilgan.

Nahv ilmi tarixan juda qisqa vaqt ichida – VII asrning ikkinchi yarmidan VIII asrning birinchi yarmigacha boʻlgan davrda shakllanib, mukammal fan darajasiga yetdi, bu fakt ilm-fan tarixi bilan shugʻullanuvchi mutaxassislarni hanuzgacha hayratlantiradi[12]. Darhaqiqat, arab tili grammatikasini puxta oʻrgangan kishi bu tilning naqadar mukammal ekaniga guvoh boʻladi. Buning sababini izlagan olim va tadqiqotchilar bir qancha fikrlarni bildirganlar. Eng ishonchli va aniqrogʻi shuki, "Nahv ilmi tashqaridan hech qanday taʼsirsiz, faqat arab tilshunoslarining izlanishlari natijasida vujudga kelgan"; "Qurʼonning oʻzi moʻjiza, unga bogʻliq ilmlar, jumladan, nahv ham Allohning irodasi ila moʻjizaviy tarzda paydo boʻlgan"[13]. Nahv olimlari maʼnoga taʼsir qiluvchi sabab grammatik omil ekanligini aniqlashgach, bu borada koʻplab asarlar bitganlar. Jumladan, Abdulqohir Jurjoniy omillarga bagʻishlab "Miat omil" (Yuzta omil) kitobini yozgan. "Omil" soʻzi lugʻatda omil, faktor, sabab, harakatga keltiruvchi kuch mazmunini ifodalaydi, grammatik jihatdan esa boshqaruv yuklamasi, boshqaruvchi soʻz maʼnolarini anglatadi[14]. Masalan, جَاءَ زَيْدٌ misolida جَاءَ feʼli lafziy omil, u sababli زَيْدٌ lafzida ish-harakatni bajaruvchi maʼno kelib chiqadi. Feʼl uning bosh kelishikda kelishiga sabab boʻladi. زَيْدٌ قَائِمٌ maʼnaviy omil boʻlib, زَيْدٌ soʻzi unga koʻra bosh kelishikda kelgan.

Omillardan yana biri إِلَي (ilā) boʻlib, oʻrniga qarab مَعَ "birgalik" maʼnosini anglatadi. Masalan, Moida surasining 6-oyatida bunday kelgan: يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آَمَنُوا إِذَا قُمْتُمْ إِلَى الصَّلَاةِ فَاغْسِلُوا وُجُوهَكُمْ وَأَيْدِيَكُمْ إِلَى الْمَرَافِقِ وَامْسَحُوا بِرُءُوسِكُمْ وَأَرْجُلَكُمْ إِلَى الْكَعْبَيْنِ "Ey, imon keltirganlar! Namozga turmoqchi boʻlsalaringiz, yuzlaringizni va qoʻllaringizni chigʻanoqlari ila yuvinglar. Boshlaringizga masʼh tortinglar. Va oyoqlaringizni toʻpiqlari ila yuvinglar". Bu oyat tafsirida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf bunday degan: "Tahoratning farzligi va bu farz amalning ichida toʻrtta farz borligi ushbu oyatdan olingan. Baʼzi toifalar bu oyatni tushunishda va undan hukm chiqarishda musulmonlar jumhur ulamolariga zid borishgan. Bunga oyatni notoʻgʻri talqin qilish sabab boʻlgan. Oyatning matni "Boshlaringizga masʼh tortinglar va oyoqlaringizga ham!" – deganga oʻxshash maʼnoda kelgan. Bu tarzda tuzilgan jumlani shia mazhabidagi kishilar "va oyoqlaringizga ham masʼh

[12]Qarang: Маҳмуд Замахшарий. Ал-Унмузаж / Нашрга тайёрловчи: Абдулҳафиз Абдужабборов. – Т: Тошкент ислом университети, 2001. – Б. 5.

[13] Oʻsha manba. –B. 7.

[14] Qarang: Юсупов М., Раҳматуллаев Ю. Ан-Наим ул-кабир. Арабча-ўзбекча луғат. – Наманган, 2014. – Б. 473.

tortinglar" degan ma'noda tushunganlar hamda shundan kelib chiqib, tahorat qilganda, yuzini va qo'lini chig'anog'i bilan yuvadi, boshiga hamda oyog'iga mas'h tortadi, deb hukm chiqarganlar. Qur'on ma'nolari boshqa tillarga tarjima qilinganda ham shu xatoga yo'l qo'yilgan. Aslida unday emas. Tahoratning tartibiga muvofiq bo'lishi uchun oyoqni yuvish kerakligi oxirida zikr qilingan. Arab tilidan xabardor hech bir shaxs bundan boshqa ma'noni tushunmaydi. Qolaversa, Qur'onni birinchi qabul qilib olgan zot Payg'ambarimiz (s.a.v.) unga oyoqni yuvish ma'nosini berganlar va o'zlari doimo tahoratda oyoqlarini yuvganlar"[15]. Demak, Hanafiy ulamolari yuqorida zikri o'tgan oyatdagi إِلَي omilini shu o'rinda مَعَ (bilan) ma'nosida kelgan, deb tushuntirganlar. Arab tili grammatikasini chuqur bilmaslik, oyatlar ma'nosiga yuzaki yondashuvlar ko'plab ixtilof va musulmonlar o'rtasida firqalarga bo'linishning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

"Baqara" surasi 187-oyatda quyidagicha kelgan: ثُمَّ أَتِمُّوا الصِّيَامَ إِلَى اللَّيْلِ "So'ngra ro'zani kechasigacha batamom qiling". Oyatdagi "kechasi" so'zi "ro'za"ning tarkibiga kirmaydi. Shu ma'noga ko'ra kechasi ro'za tutilmaydi. Ulamolar yuqoridagi tahorat va ro'zaga doir oyatlarda zikr qilingan إِلَي ko'makchisiga turlicha ma'no berishgan. Jumladan, Burhonuddin Marg'inoniy "Hidoya" asarida quyidagicha zikr etgan: "Bizga ko'ra, tahoratda tirsak va to'piqlar yuviladi. Marg'inoniy fikricha, (tahoratdagi) chegara o'zidan keyingi joyni yuvishni soqit qilish uchun kelgan, aks holda yuvish majburiyati qo'lning hamma qismini qamrab olgan bo'lar edi. Ro'za bobida esa, chegara ro'zaning hukmini kechgacha davom ettirish uchun o'rnatilgan. Chunki "savm" (ro'za) so'zi aslida bir muddat (taom, ichimlik va jinsiy aloqadan) tiyilib turish demakdir"[16]. Mazkur misollardan Qur'on ma'nolarini tarjima va tafsir qilishda arab tili grammatikasini mukammal bilish muhimligi anglanadi. Zero, arab tilini yaxshi bilmaslik oyatlar ma'nosiga yuzaki yondashuvlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Oqibatda ko'plab ixtilof, kishilar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Shuningdek, adashgan turli firqalarning kelib chiqish manbai ham Qur'on ma'nolarini to'g'ri tushunmaslik, ularni noto'g'ri talqin qilish yoki o'zlarining siyosiy g'arazlarini dalillash oqibatida kelib chiqqanini ta'kidlash zarur.

Birinchi bobning uchinchi fasli *"Qur'on oyatlarida grammatik tahlil bayoni"* deb nomlangan. Qur'on oyatlarida bir so'z o'zidan keyin kelayotgan so'zga, ba'zilari oldingisiga ta'sir ko'rsatadi. Qur'on ma'nolari tarjimasini bilishda grammatik omillar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, حروف الجر (huruf al-jar) ismni qaratqich kelishigida kelishini talab qiluvchi ko'makchilardan biri ب ("bi") omili turli o'rinlarda har xil ma'nolarda qo'llaniladi. Bu ko'makchi "bilan" ma'nosidan tashqari "Ta'avvuz" iborasida isti'āna (yordam) ma'nosini ifodalaydi. اعوذ بالله من الشَّيطان الرَّجيم "A'uzu billahi minash shaytonir rojim"ning ma'nosi "Quvilgan shayton yomonligidan Allohdan panoh so'rayman", ya'ni Allohdan yordam so'rayman, degan ma'no kelib chiqadi. Shuningdek, "Nahl" surasining 98-

---

[15] Qarang: Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. – Т: Шарқ, 2008. 2-жуз. – Б. 22.
[16] Бурхонуддин Марғиноний. Ҳидоя шарҳ бидоятил мубтади. Ўзбекча изоҳли-академик таржима. – Т: Hilol-Nashr, 2020. – Б. 44.

oyatida "فَإِذَا قَرَأْتَ الْقُرْآنَ فَاسْتَعِذْ بِاللهِ مِنَ الشَّيْطَانِ الرَّجِيمِ "Qachonki, Qur'on o'qisangiz, albatta, quvg'in etilgan shayton (vasvasasidan)dan Alloh panoh berishini so'rangiz!"[17] Mazkur oyatda ham "bi" omili "yordam so'rash" ma'nosini ifodalagan. Shu kabi "basmala"dagi "bi" ham mazkur ma'noni bildiradi. Basmala "Bismillāhir rohmānir rohim"ning qisqartma shakli bo'lib, Qur'onda 114 marotaba takrorlangan. "Tavba" surasidan tashqari 113 ta sura "basmala" bilan boshlangan. Yana bir o'rinda – "Naml" surasi 30-oyatda: إِنَّهُ مِنْ سُلَيْمَانَ وَإِنَّهُ بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ "Albatta, u Sulaymondandir, albatta, unda: "Bismillāhir rohmānir rohim" deb keltirilgan. Basmala "Mehribon va rahmli Alloh nomi ila yordam so'rab boshlayman" – degan ma'noni anglatadi. "Bi" ma'nolaridan yana biri ta'lil (sababni bildirish) uchun qo'llanadi. "Baqara" surasi 54-oyatda: إِنَّكُمْ ظَلَمْتُمْ أَنْفُسَكُمْ بِالتِّخَاذِكُمُ الْعِجْلَ "(Ey qavmim), buzoqqa sig'inib, o'zlaringa jabr qildinglar"[18], deyilgan. Ya'ni "buzoqqa sig'inganlaring sababli o'zlaringga jabr qildinglar" ma'nosida bo'lib, "bi" sababiyatni ifodalab kelgan. Bu omilning yana bir ma'nosi "ta'diya" o'timsiz fe'lni o'timligga aylantirish uchun qo'llaniladi: "Baqara" surasi 17-oyatda: ذَهَبَ اللهُ بِنُورِهِمْ "Alloh (bexosdan olov) nurini ketkazib..."[19], – deyilgan. Oyatdagi ذَهَبَ (ketdi) fe'liga أَذْهَبَ (ketkazdi) ma'nosining berilishiga "bi" omili sabab bo'lgan. Ba'zida bu omil ma'noni bildirmaydigan ortiqcha ko'makchi bo'lib ham keladi: "Baqara" surasi 195-oyatda: وَلَا تُلْقُوا بِأَيْدِيكُمْ إِلَى التَّهْلُكَةِ "O'zingizni halokatga duchor qilmang"[20] ma'nosida bo'lib, "bi" omili ortiqcha ko'makchi bo'lgani uchun unga ma'no berilmaydi. Shuningdek, "Niso" surasi 166-oyatda: وَكَفَى بِاللَّهِ شَهِيدًا "Alloh (O'zi) etarli guvohdir"[21]. Bu oyatda ham "bi" ortiqcha ko'makchi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, Qur'ondagi har bir omil "bi" kabi o'rniga qarab bir necha xil ma'nolarda qo'llanilgan.

"Abdulqohir Jurjoniy "Miat omil" asarining nusxalari va tarkibiy tuzilishi" deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi fasli "Abdulqohir Jurjoniyning arab tilshunosligi rivojiga qo'shgan hissasi" deb ataladi. Abu Bakr Abdulqohir ibn Abdurrahmon ibn Muhammad Jurjoniy (1010 – 1078) iqtidorli olim, balog'at ilmi asoschisi, arab tili grammatikasi shayxi sanaladi. U nahv ilmini Abul Husayn Muhammad ibn Hasan Forsiydan o'rgandi. Jurjoniy arab tili grammatikasidan tashqari fiqh, kalom va balog'at ilmlarini puxta o'zlashtirgan. U ellikdan ortiq bebaho asarlar yozib qoldirdi. Olim balog'at ilmiga doir "Asror al-balog'a" (Balog'at ilmi sirlari), "E'joz al-Qur'ān" ("Qur'onning ojiz qoldirishi"), arab tili grammatikasiga oid "Miat omil" ("al-Avāmil al-mia" deb ham yuritiladi), "al-Jumal"; "at-Talxis", "al-Umda" (morfologiya haqida), "at-Takammulatu fin-nahv", "Kitāb al-a'ruz" (Aruz vazni haqidagi kitob), tafsir ilmiga doir "Sharh al-Fātiha"

---

[17] Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т: Sano-standart, 2021. – Б. 278.

[18] Шайх Усмонхон Темурхон Самарқандий. Қуръони карим маъноларининг ўзбекча таржимаси ва тафсири. – Т: Sharq, 2019. – Б. 63.

[19] Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т: Sano-standart, 2021. – Б. 4.

[20] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. – Т: Hilol-Nashr, 2019. – Б. 30.

[21] Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т: Sano-standart, 2021. – Б. 104.

15

("Fotiha"surasining sharhi), "Darj ad-durari fit-tafsir al-oya vas-suvar" (Sura va oyatlar tafsiri haqida marvarid pillapoyasi), "Risalat ash-shāfiya", "Dalāil al-e'jāz" (Ojiz qoldirish dalillari), "ar-Risālat as-sāniya fil-e'jāz" (Ojiz qoldirish haqida ikkinchi risola) kabi, bundan tashqari "al-Mug'niy fiy sharh al-Iyzoh", "al-Muqtasad" (muxtasar), ilm-fan va san'at sohasida qo'llangan atamalarni jamlab, arab manbalari orasida istilohlarning sharhiga atalgan ilk asarlardan "Kitāb at-ta'rifot"[22], ilmlar taqsimoti borasida "Risāla fiy taqsim al-ulum", "Sharh at-tazkirat an-nāsiriya" kabi asarlarni yozdi. Jurjoniy asarlaridan butun musulmon olami hozirgi kunga qadar foydalanib kelmoqda. Olim "Asror al-balog'a" asari bilan balog'at ilmiga asos solgan bo'lsa, "Miat omil" asari orqali grammatik omillarni alohida asar sifatida bayon qildi. Alloma din ilmlari, ayniqsa, sarf, nahv va balog'at ilmlari orqali arab tilshunosligi rivojiga katta hissa qo'shgan olim sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *"Miat omil" asarining qo'lyozmalari tavsifi va tahlili* deb nomlangan bo'lib, unda Jurjoniy "Miat omil" asariga doir qo'lyozmalarning tavsifi va ularga oid tahlillar keltirildi. Asarning uchta to'liq qo'lyozma nusxalari dunyo kutubxonalari fondlarida saqlanmoqda. Misrdagi Azhariya kutubxonasida 33707 umumiy, 2686 alohida raqamli nusxa. Jami 24 varaq, har bir sahifada 9 qator bo'lib, har bir qatorda oltitadan so'z mavjud. Qo'lyozma nasx xatida yozilgan. Qo'lyozmaning ikkinchi nusxasi Dog'istondagi xususiy kutubxonalarning birida saqlanmoqda[23]. 17 varaqdan iborat. Har bir sahifada 7 qator bo'lib, o'rtacha so'zlar soni sakkizta. Nasx xatida yozilgan. Qozi Abdussalom Buniyning "al-Avāmil al-mia" manzumasi ham mana shu kitob asosida yozilgan. Keyingi qo'lyozma nusxasi Turkiyaning Adana shahrida Salohiddin universiteti kutubxonasida saqlanmoqda[24]. 18 varaqdan iborat, har bir varaqda etti qator mavjud. Har bir qatordagi so'zlarning soni o'rtacha oltitani tashkil qiladi. Nasx xatida, ochiq va ravshan yozilgan. Hoji Bakr ibn Ahmad tomonidan 1597-yilda ko'chirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida Abdulqohir Jurjoniy "Miat omil" asarining 40 dan ortiq qo'lyozma nusxasi mavjud. Qo'lyozmalar raqamlanib, quyidagicha tavsif berilgan: "XV asrga oid asar العوامل في النحو (al-Avāmil fin-nahv) "Nahv ilmidagi omillar" deb nomlangan. Arab tilida, nasta'liq xatida yozilgan. 7 varaqdan iborat. 10895-sonli inventar raqami ostida saqlanmoqda. Nasta'liq xatida Mirlutfulloh tomonidan 1865-yilda ko'chirilgan. Arab tilida. 12 varaqdan iborat. عوامل المئة (Avomil al-mia) deb nomlangan. 8820-sonli inventar raqami ostida saqlanmoqda. Nasta'liq xatida yozilgan, 10 varaq, har bir sahifa 11 qatordan iborat".

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Manbalar xazinasi"da asarning 17 ta qo'lyozma, 6 ta asarga yozilgan sharhning qo'lyozma manbalari saqlanmoqda. "Miat omil" asariga oid 60 ta sharh, 20 ta manzuma va 2 ta grammatik tahlil

---

[22] Mullasodiqova N., Bobojonov H. Nahvda yuzta omil. – T: Toshkent islom universiteti, 2014. – Б. 8.

[23] عبدالقاهر ابن عبد الرحمان ابن محمد الجرجاني. العوامل المئة. بيروت. دار المنهاج - 1430 ه. 2009 م.ص.20.

[24] O'sha manba. – B. 20.

yozilgan[25]. Asarga oid sharh va tahlillar ko'pligi uning ahamiyatli ekanligiga dalolat qiladi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli *"Asar tarkibiy tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari"* deb nomlangan. "Miat omil" arab tili grammatikasidagi omillar borasida yozilgan asarlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Olim asarini hamd-u salovatdan keyin "yuzta omil bo'lib, ulardan lafziy va ma'naviy bo'lganlari bor" deb boshlagan. "Lafziy omillar ikkiga bo'linadi: samo'iy va qiyosiy. Samo'iy (arablardan shunday eshitilgan) omillar 91 ta, qiyosiysi 7 ta. Ma'naviy omillar 2 ta", deb umumiy omillarni qismlarga ajratgan. Samo'iy omillarning o'zini o'n uch turga tasniflagan. Jumladan, ismlarni qaratqich kelishigida kelishini talab qiladigan ko'makchilar, fe'lga o'xshash yuklamalar, لَيسَ fe'liga o'xshash ﻣﺎ va لا yuklamalari, otni tushum kelishigida bo'lishini talab qiluvchi yuklamalar, hozirgi-kelasi zamon fe'lini istak mayli shaklida bo'lishini talab qiladigan yuklamalar, hozirgi-kelasi zamon fe'lini shart mayli shaklida bo'lishini talab qiladigan yuklamalar, hozirgi-kelasi zamon fe'lini إنْ yuklamasi ma'nosida shart mayli shaklida bo'lishini talab qiladigan ismlar, noaniq holatdagi ismlarni cheklash, aniqlashtirish yo'li bilan tushum kelishigida bo'lishini talab qiladigan ismlar, fe'llarning otlashgan shakllari, yordamchi fe'llar, yaqinlikni ifodalovchi fe'llar, maqtash va qarg'ashni ifodalovchi fe'llar, shubha va ishonchni ifodalaydigan fe'llar deb nomlangan. Mazkur 13 turning har biriga ta'rif berilganidan keyin, ularning tarkibiga kiruvchi har bir omil va uning ma'nolari oyat yoki misol yordamida bayon qilingan. Undan keyin quyidagi etti qiyosiy omil yoritilgan. Ular o'timli va o'timsiz fe'llar, masdar (o'zak so'z), aniq darajali sifatdosh, majhul darajali sifatdosh, sifatdosh ma'nosidagi sifat, muzof (izofa birikmasining birinchi bo'lagi-aniqlanmish), to'liq ot. Asar nihoyasida ikkita mantiqan o'ylab topiladigan ma'naviy omilning ta'rifi bayon qilingan: 1) ega va kesimdagi ma'naviy omil, 2) hozirgi-kelasi zamon fe'lidagi ma'naviy omil. Omillar borasida yozilgan asarlar orasida "Miat omil" qadimiyligi va mashhurligi bilan ajralib turadi. Grammatikaga oid boshqa asarlarda bir omilning faqat birgina ma'nosi bilan cheklanilsa, bu asarda bir omilning bir necha ma'nolari ketma-ket yoritilgan. Asar ixcham tarzda bayon qilingan. Asarning ba'zi nusxalarida yuzta omil raqamlar orqali tartiblangan[26].

Uchinchi bob **"Miat omil" asarining oyatlar mazmun-mohiyatini anglashdagi o'rni"** deb nomlanib, uning birinchi fasli *"Asarda Qur'ondagi fe'l va ismga ta'sir qiluvchi omillar bayoni"* deb ataladi. "Miat omil" asarida asosiy o'rin fe'l va ismlarga ta'sir qiluvchi omillarga qaratilgan. Fe'lga ta'sir qiluvchi omillardan hozirgi-kelasi zamondagi fe'lni istak mayli shaklida bo'lishini va mazkur fe'lni shart mayli shaklida bo'lishini talab qiladigan yuklamalar hisoblanadi. Hozirgi-kelasi zamon fe'lini istak mayli shaklida bo'lishini talab qiluvchi omillar to'rtta: أنْ ("an" – ish, qo'shimchasi), لَنْ ("lan" – hargiz emas), كَى ("kay" – uchun), إِذَنْ ("izan" – unday bo'lsa). Qur'onning ko'plab oyatlarida mazkur yuklamalar omil bo'lib kelgan. "Baqara" surasi 26-oyatda: إنَّ اللَّهَ لَا يَستَحْيِي أنْ

---

[25] عبدالقاهر ابن عبد الرحمان ابن محمد الجرجاني. العوامل المئة. بيروت. دار المنهاج - 1430 هـ. 2009 م.ص.135

[26] عبدالقاهر ابن عبد الرحمان ابن محمد الجرجاني. العوامل المئة. بيروت. دار المنهاج - 1430 هـ. 2009 م.ص.73

يَضْرِبَ مَثَلًا مَا بَعُوضَةً فَمَا فَوْقَهَا "Alloh chivin, balki undan ham "yuqori" narsalar haqida zarbulmasal aytishdan uyalmaydi". Oyatdagi أَنْ omili يَضْرِبَ fe'lini istak mayliga aylantirgan. Fe'lga ta'sir etuvchi omillarning beshta اِنْ ("in"), لَمْ ("lam"), لَمَّا ("lamma"), لَا ("lā"), لَامُ الْأَمْرِ (lām al-amr), qolgan to'qqiztasi ism مَنْ ("man"), مَا ("mā"), أَيٌّ ("ayyun"), مَتَى (matā), مَهْمَا (mahmā), أَيْنَ (ayna), أَنَّى (annā), حَيْثُمَ ("haysumā"), إِذْمَا (izmā) sanaladi. "Ixlos" surasi 3-oyatda لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ Ma'nosi: "U tug'magan va tug'ilmagan"[27]. Bu o'rinda ham لَمْ ("lam") omili fe'lni shart mayliga aylantirgan. "Niso" surasi 78-oyatda: الْمَوْتُ أَيْنَمَا تَكُونُوا يُدْرِكُكُمُ. Ma'nosi: "Qayerda bo'lsangiz ham ... o'lim sizni topadi". Oyatda أَيْنَمَا omili ikkita fe'lni shart mayliga aylantirgan: تَكُونُوا fe'lidan ن tushib qolgan va يُدْرِكُكُمُ fe'li shartning javobi hisoblanadi.

